

## BOSHLANG'ICH SINFDA O'QUVCHILARNING BILIMINI O'STIRISHDA O'QITUVCHINING ROLI

*Jumanazarova Nasiba*

*Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi 5 son maktabning  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida nutq o'stirish metodikasi va bilimni ostirish ,og'zaki, va yozma nutq, ularning o'zaro uzviy bog'langanligi, o'ziga xos xususiyatlari, o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishida ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo'llari, sifatli ta'lim berish jarayonida nutq o'stirishga erishish orqali o'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan kommunikativ ko'nikmalar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** nutq, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko'nikmalar, inson kamoloti, buyuk allomalar, ma'naviy meros,

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi yurtimizda davlat ishlarining, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya, targibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamda olib borilyapti. Lekin, shuni ham eslash joizki, tilning ijtimoiy vazifasini bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati yetarli taraqqiy etmaganligi achinarli bir holdir. Shu bois nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shunki nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlantirish umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, balki jumhuriyatimizda istiqomat qiluvchi barcha soha vaqillari e'tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki, nutq madaniyati umuminson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, kishilarni yuksak madaniyatli bo'lishlarini belgilaydi.

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda o'quvchi nutqini o'stirish ona tili predmetining asosiy vazifasi hisoblanadi. Biroq bu vazifa boshqa o'quv predmetlari doirasida ham amalga oshiriladi. Jumladan, o'qish darslari jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Ya'ni, o'qish kitobidagi matnlarni o'rganish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zi uchun notanish bo'lgan ko'plab so'zlar va ularning ma'nosini o'rganadi, ya'ni ularning so'z boyligi oshadi. O'qituvchi bunday so'zlarni izohlash bilan kifoyalanmay, o'quvchilarga ular ishtirokida so'z birikmasi, gap ham tuzdirsa, yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilinsa, yangi so'zlar o'quvchilarning faol lug'atiga kiradi.

Nutq o‘stirish boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasining tarixi va nazariyasini ham, muomala madaniyatini o‘rgatish uslubiyotini ham o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, avvalo, o‘quvchilariga umumiy estetik tarbiya berish vazifalarini tushunib olishi lozim. Bu vazifalar faqatgina yaxshi muomala qilishni o‘rgatishdangina iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Bunda, eng muhimi, bolaga nutq madaniyatini o‘rgatish va unda har bir mashg‘ulotlarga qiziqish uyg‘otish, so‘z, gap yordamida nutqiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilish, shuningdek, ularda bilim, ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirishdir.

Nutq ikki ko‘rinishga ega - og‘zaki, va yozma nutq. Bular o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lsa ham, har birining o‘ziga xos xususiyati bor. Og‘zaki nutqda tovushlar, so‘zlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish a‘zolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yo‘llarini izlab topishimiz kerak.

Chiroyli so‘zlashni, savodli, to‘g‘ri yozishni, o‘z fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan o‘quvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan o‘zlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon bo‘lsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo‘ladi. Nutq orqasli odamzot o‘zining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-to‘la rivojlangan yoki shakillangan bo‘lavermaydi.

O‘qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya‘ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o‘ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o‘quvchilar topgan sarlavhani jamoa bo‘lib muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o‘zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o‘z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Asarni o‘qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja doskaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchilikda o‘zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o‘qituvchi savoligi javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning hiyla mustaqil formasidir. O‘qilgan asar mazmunini o‘zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich, qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo‘linadigan, bu bo‘limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o‘rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o‘qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo‘yilgan birinchi qismini o‘qiydi va o‘quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o‘quvchilar ba‘zan asardagi so‘zlardan foydalanadilar. Bu o‘quvchilarga qiyinlik qilsa,

bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar. O'qilgan asarni qisqartirib hikoya qilishga 3-sinfdan boshlab o'rgatiladi. Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini o'stirish vositalaridan biridir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nutq o'stirish mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar hech qanday qiyinchiliksiz o'qituvchining asar yuzasidan bergan savollariga javob bera oladilar, ayrim so'zlarni, jummalarni takrorlaydilar, qahramonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini xarakterlab beradilar, o'qituvchiga taqlid qilib, ularning ovozi o'xshatishga harakat qiladilar.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti, istiqboli, farovonligi, ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarini mujassamlagan yoshlarga bog'liq hisoblanib, har jihatdan yetuk va barkamol, Vatan taqdiri uchun sidqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va mazmun jihatdan yuqori pog'onalarga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharaflil va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning yuqori darajada aqliy va nutqiy rivojlanishini, ularning til qobiliyatlari shakllanishini ta'minlash imkonini beruvchi usullarni tashkil etishning maqbul shaklini izlash, nazariy va amaliy

tadqiqotlarda bunday o'quvning mazmuni va shakllari haqidagi masalalar hal etish yuzasidan yangicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Berilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, berilayotgan ta'lim sifati natijadorligini ta'minlash zamonaviy o'qituvchidan katta pedagogik mahorat, yuqori kompetentlik va ijodkorlikni talab etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Дилова Н.Г. (2014). Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. № 26, С. 190-193.
2. Расулова З.Д. (2020). Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. № 21 (99), часть 2, С. 37-40.
3. Dilova N.G. (2021). Sharq allomalarining ilmiy merosi – uchinchi renesans uchun katta imkoniyat. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 506-514 betlar.
4. Расулова З. (2021). Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ўқув жараёнида ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 349-359 бетлар.
5. Dilova N.G. (2021). Ajdodlarimiz merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishning ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 515-523 betlar.
6. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар.
7. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.
8. Dilova N.G. (2021). O'quvchilarning shaxsiy sifatlari - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 558-566 betlar.